“Bulutli informatsion texnologiyalar” joriy qilinadi

Joriy yil 17-may kuni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutiga Birlashgan Yadro tadqiqotlari instituti Xalqaro davlatlararo tashkilotining (Dubna) Informatsion texnologiyalar laboratoriyasi direktori V.V.Korenkov, laboratoriyaning sektor boshlig’i E.B.Dushanov, Radiotsion biologiya laboratoriyasi direktori A.N.Bugay hamda laboratoriya direktori o’rinbosari S.G.Arutyuniyanlardan iborat delegatsiya tashrif buyurdi.

Dastlab mehmonlar Institut faoliyati bilan tanishdilar. Mehmonlarni Institutda joriy qilingan neytron qamrov terapiyasi bo’yicha qilinayotgan tadqiqotlar juda qiziqtirdi hamda O’zbekistonda bu sohadagi tadqiqotlar yaxshi rivojlanganligini ta’kidlashdi.

So’ngra FA prezidenti hamda Institut rahbariyati ishtirokida uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvda o’zaro hamkorlik yo’nalishlari, jumladan, “Bulutli informatsion texnologiyalari”ni joriy qilish, radiatsion biologiya yo’nalishidagi hamkorlik qilish masalalari muhokama qilindi. “Bulutli informatsion texnologiyalar”ni dastlab Yadro fizikasi institutida, so’ngra Fanlar akademiyasining boshqa muassasalarida joriy qilishga kelishib olindi.

“Bulutli informatsion texnologiyalar” juda katta hajmdagi ma’lumotlarni tez va ishonchli yuklab olish va

jo’natish hamda katta informatsion resurs talab qiluvchi hisoblarni bajarish imkoniyatini beradi.

Shundan so’ng, Institut jamoasi uchun seminar tashkil qilindi. Unda Informatsion texnologiyalar laboratoriyasi direktori V.V.Korenkov hamda Radiatsion biologiya laboratoriyasi direktori A.N.Bugay o’z laboratoriyalarida o’tkazilayotgan tadqiqotlar bo’yicha ma’ruza qilishdi va o’zaro fikr almashildi.

Shuningdek, mehmonlar FA O’simlik moddalari kimyosi instituti va Sharqshunoslik institutida ham bo’lishdi hamda faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Mamlakatimizda ilm-fanga qaratilayotgan e’tibor ularda katta taassurot qoldirdi.

Shundan so’ng mehmonlar, FA Prezidiumi binosida ham uchrashuv tashkil etildi. Bu yerda Fanlar akademiyasida informatsion texnologiyalarning joriy qilinishi bilan tanishdilar va Birlashgan Yadro tadqiqotlari instituti hamda Fanlar akademiyasining hamkorlikdagi istiqbolli yo’nalishlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash masalasi muhokama qilindi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda bir guruh yosh olimlar Birlashgan Yadro tadqiqotlari institutiga (Dubna shahriga) 6 oylik malaka oshirish kurslariga jo’natilgan.

18-may kuni delegatsiya Materialshunoslik institutiga tashrif buyurdi va Institut faoliyati bilan tanishdi. Tashrif davomida Institut rahbariyati bilan uchrashib, mazkur muassasada ham “Bulutli informatsion texnologiyalar”ni joriy qilishga kelishib olindi.

IMS